

# AYOL QADRI

Muxammadova Maftuna, 1-bosqich talabasi  
Jizzax davlat pedagogika universiteti

[njumanova69@mail.ru](mailto:njumanova69@mail.ru)

“Ayol qadri, inson qadri ulug’langan yurtda tinchlik va farovonlik, ahillik va baraka albatta barqaror bo’ladi” SH. M. Mirziyoev

**Annotatsiya:** Maqolada hukumatimiz tomonidan ayollarning e’zozlanishi, xotin-qizlarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta’minalash, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish haqida fikr-mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so’zlar:** ayol, zukko va bilimdon qizlar, oila, ayol baxti, e’tirof, e’tibor.

Xalqimiz azal-azaldan Ona siymosini, Ayol zotini Yaratganning ulug’ ne’mati, tengsiz mo’jizasi, deb biladi, uni hamisha ardoqlab-asrab yashaydi. Yurtimiz zaminidagi “Bibixonim”, “Qizbibi”, “Modarixon”, “Qirqqiz” majmuasi kabi tabarruk me’moriy obidalar ham ana shunday azaliy yuksak e’tibordan dalolat beradi. Insoniyat taraqqiyotiga unutilmas va beqiyos hissa qo’shgan buyuk ajdodlarimizni dunyoga keltirib, mehr bilan tarbiyalagan, ularni ulug’vor ishlarga ruhlantirib, kamarbasta bo’lgan fozila ayollar bilan xalqimiz doimo faxrlanadilar. Prezidentimiz SH. M. Mirziyoev “Har qanday jamiyat va davlatning qay darajada xalqparvar hamda adolatli ekani uning xotin-qizlarga bo’lgan munosabati va g’amxo’rligi bilan belgilanadi” deb bejizga aytmaganlar. Hozirgi kunda xotin-qizlarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta’minalash, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasining muhim yo’nalishlaridan biriga aylandi. **“Bitta qiz bolani o’qitsangiz – butun oilani o’qitgan bo’lasiz”**, deb buyuklarimiz bejizga aytishmagan.

Hukumatimiz tomonidan qizlarimizning zamonaviy bilimlar va kasb-hunar egasi bo’lib, jamiyatda hamda o’z oilasida munosib o’rin topishi uchun barcha imkonniyatlar yaratilmoqda. Barcha talaba qizlarga ta’lim kontraktlarini to’lash uchun 7 yil muddatga foizsiz kredit berish tartibi joriy qilinganligi buning isbotidir.

Ma’lumki, bugungi kunda xotin qizlar orasida o’nlab akademik va professorlar, fan doktorlari va fan nomzodlari, yuzlab iste’dodli tadqiqotchilar turli sohalarda faoliyat yuritmoqdalar. Ilm-fan bilan shug’ullanish, ilmiy yangilik yaratish – bu igna bilan quduq qazishga barobar.

SHuning uchun ham oila tashvishlari va farzand tarbiyasini ilmiy tadqiqot bilan birga olib borayotgan, bu borada amaliy yutuq va natijalarga erishayotgan olima ayollarni yurtbosimiz ham doimo ulug’lashini o’z nutqida aytib o’tgan va buni chinakam matonat va jasorat sohibalari deb bilaman va yuksak qadrlayman deb ta’kidlagandilar.

Yurtboshimiz tomonidan zukko va bilimdon xotin-qizlarning ilm-fanga bo'lgan qiziqish va ishtiyoqini oshirish maqsadida biz bir qancha muhim chora-tadbirlar belgilandi. Jumladan, joriy yildan boshlab magistraturada o'qiyotgan barcha qizlarning kontrakt pullarini to'liq byudjetdan qoplab berish uchun har yili 200 milliard so'm mablag' yo'naltirilgan; doktorantura yo'nalishida xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratildi.

Bu ishlarni tizimli ravishda tashkil qilish va muvofiqlashtirish maqsadida Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi huzurida "Olima ayollar jamiyat" tuzilganligi buning yaqqol isbotidir. Ushbu jamiyat mamlakatimizda va xorijda ilm-fan sohasida yuksak yutuqlarga erishayotgan olima ayollarni jipslashtirib, ularning aql-zakovat nurini hayotimizning har bir jabhasiga kirib borishi uchun o'ziga xos parvoz maydoniga aylanib bormoqda.

Ayollarni qadrlash muqaddas Islom dinida ham ko'rindi. Ayollarga chiroyli muomala qilishda Rosululloh sollallohu alayhi vasallam butun insoniyatga namuna bo'ladilar. Ayol nomini ulug'lash, uning sha'nini ko'tarish, xotin-qizlarning huquqini belgilab berishda nafaqat islam olamiga, balki, butun jamiyatga ibratdirlar. U zotning oxirgi vasiyatlarida shunday mashhur jumlalar bor edi: "**Ogoh bo'linglar, ayollarga yaxshi muomala qilinglar...**" (Imom Termiziy rivoyati).

Boshqa bir hadisda esa Rosululloh sollallohu alayhi vasallam: "**Sizlarning yaxshilaringiz, xotinlariga yaxshilik qiladiganlaringizdir**", dedilar. (Imom Termiziy rivoyati)

Ko'pchilikka ma'lumki, islomdan oldingi davrda ayollarning ahvoli judayam achinarli bo'lgan, ayolga go'yoki bir buyum, shunchaki ko'ngilxushlik vositasi sifatida qaralardi. Ayollar cho'ri sifatida sotilar, tanfurushlikka majbur qilinib, u tufayli pul ishlashardi. Tug'ilgan chaqaloqlar agar qiz bo'lsa, tiriklay ko'milar edi.

O'zini anchayin madaniyatli, hur fikrli sanagan G'arb olamida esa ayollarning holiga maymunlar yig'lardi. Unga oddiy buyum sifatida qaralar va "SHaytonning urg'ochisi" degan nomlar bilan kamsitib, xo'rلانardi. Hatto, G'arb mamlakatlaridan birining parlamenti: "Ayolni inson deb hisoblash kerakmiyo'qmi?", degan masalani muhokamaga qo'ygan ekan.

Haqiqiy baxt esa, ayolni asl maskani – oilasi bag'riga, farzandlari quchog'iga, erkaklarning ardog'iga qaytarishda! Unga onalik baxtini, ayol mukarramligini va go'zalligini, nazokatini, hayo va iffatini qaytarib berishda bo'ladi.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi 2023y 8 mart
2. Nasiba Jumanova, TSELI I ZADACHI AKTIVATSII, USKORENIYA PEDAGOGICHESKIX TEXNOLOGIY , Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii: Tom 1 № 1 (2021): Zamonaviy ta'lilda pedagogika va psixologiya fanlari
3. Jumanova, N. (2021). PROFILAKTIKA PSIXOLOGICHESKIX DEFEKTOV V RAZVITII LICHNOSTI. Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom

- obrazovani, 1(1). izvlecheno ot  
<https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1365>
4. Jumanova, N. (2021). XARAKTERISTIKI PROBUJDENIYa STARSHEY GRUPPY DETEY LYBOVЬ K LITERATURE. Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii, 1(1). izvlecheno ot  
<https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1366>
5. Jumanova, N. (2020). AKTUALЬNIE VYZOVЫ SOVREMENNOY NAUKI. Arxiv Nauchnyx Publikatsiy JSPI.
6. Obidova, D., & Nasiba, J. ANALYSIS OF THE ACTIVITIES OF HEALTH CARE INSTITUTIONS: PROSPECTS FOR THE APPLICATION OF PSYCHOLOGICAL KNOWLEDGE.
7. Atamurodova, R. K., Jumanova, N. SH., & Alimkulov, S. O. U. (2016). Vzglyadы uchyonых srednevekovъya o dushe cheloveka. Problemy pedagogiki, (8 (19)).
8. Sherboevna, N. J. (2020). THE USE OF INTEGRATED TECHNOLOGIES IN THE CULTIVATION OF CHILDREN'S SPEECH IN PRESCHOOL EDUCATION. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(2).
9. Jumanova, N. (2023). O'SMIRLARDА STRESSNING PAYDO BO'LISHI VA UNING OLDINI OLISH VA BARTARAF ETISH USULLARI. Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremenном obrazovanii, 3(2). izvlecheno от  
<https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8332>
10. Jumanova, N., & Hamidova, M. (2023). O'QUVCHILARINING O'QUV MOTIVLARINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYaLARI. Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremenном obrazovanii, 3(2). izvlecheno от  
<https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8338>
11. Jumanova, N., & Hamidova, M. (2023). O'QUVCHILARNING O'QUV FAOLIYATI JARAYoNIDA KASBIY MOTIVATSIIYaSINI RIVOJLANTIRISH. Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremenном obrazovanii, 3(2). izvlecheno от  
<https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8343>